

DARYO.UZ MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI**X.U.Urokov**

Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Tillarni o'qitish metodikasi
kafedrasi assistenti
urokovhasan@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda har bir inson o'z hayotini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmay qoldi. Ijtimoiy tarmoq biz uchun muloqot qiladigan, ma'lumotlar almashadigan, yangiliklardan xabardor qiladigan katta bir virtual maydon vazifasini bajarmoqda. Daryo.uz ijtimoiy tarmoq sayti sahifalarida e'lon qilinayotgan yangiliklar ham foydalanuvchilar uchun tezkorlik bilan yetkazilmoqda. Ushbu maqolada ham ushbu saytdagi yangiliklarning matnlari sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilingan, so'zlarning jamiyat hayoti bilan bog'liqligi, yangilik matnlarini bir necha turga bo'lish mumkinligi sabablari ko'rsatilgan. Bulardan tashqari, matnlarning pragmatik ma'no anglatayotganligi ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, Daryo.uz, yangiliklar, pragmatik ma'no, sotsiolingvistik, ma'lum bir guruhlariga xos so'zlar, abreviaturalar, ijtimoiy qatlam, dialektal so'zlar.

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF DARYO.UZ TEXTS**H.U.Urokov**

Samarkand State University
Urgut Branch Language Teaching Methodology
department assistant
urokovhasan@gmail.com

Abstract: Today, everyone cannot imagine their life without social networks. The social network serves as a large virtual space for us to communicate, exchange information, and inform about news. The news published on the Daryo.uz social network site is also quickly delivered to users. In this article, the texts of the news on this site are analyzed from a sociolinguistic point of view, and the connection of words with the life of the society is shown. Reasons why news texts can be divided into several types are given. In addition, the pragmatic meaning of the texts was also studied.

Key words: social network, Daryo.uz, news, pragmatic meaning, sociolinguistics, words specific to certain groups, abbreviations, social layer, dialectal words.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕКСТОВ DARYO.UZ**Х.У.Уроков**

Самаркандский государственный университет
Методика преподавания языка ургутского филиала
ассистент кафедры
urokovhasan@gmail.com

Аннотация: *Сегодня каждый не представляет свою жизнь без социальных сетей. Социальная сеть служит нам большим виртуальным пространством для общения, обмена информацией, информирования о новостях. Новости, публикуемые на сайте социальной сети Daryo.uz, также оперативно доходят до пользователей. В данной статье тексты новостей на этом сайте анализируются с социолингвистической точки зрения, и показывается связь слов с жизнью общества. Приведены причины, по которым новостные тексты можно разделить на несколько типов. Кроме того, изучалось и прагматическое значение текстов.*

Ключевые слова: *социальная сеть, Daryo.uz, новости, прагматическое значение, социолингвистика, слова, характерные для определенных групп, аббревиатуры, социальный слой, диалектные слова.*

Ijtimoiy tarmoq sahifalari bugungi kunda turli-tuman xabarlar, yangiliklar, ma'lumotlar, yozishmalar bilan to'lib bormoqda. Bu xabarlarning ichida ishonarlisi ham, ishonchsizlari ham mavjudki, tarmoq foydalanuvchilari avvalo bu xabarlarning ishonchliligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Shundan so'ng esa o'sha xabarlarga kommentariyalar yozish, fikrlar bildirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ijtimoiy tarmoqning axborot matnlarida asosan ikkita uslub: yozma so'zlashuv va publitsistik uslublar (video jarayonida esa og'zaki so'zlashuv yozma so'zlashuv uslubi o'rnini egallaydi) boshqa uslublarga qaraganda ko'proq ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Yozma so'zlashuv uslubidagi matnlardan o'zaro muloqot jarayonlarida, hol-ahvol so'rashda, do'stona muloqot jarayonlarida foydalanilsa, publitsistik uslubdagi internet matnlaridan esa ma'lum bir saytlar biror bir xabarni foydalanuvchilarga yetkazishda foydalanadi. Bu saytlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilariga - obunachilariga ishonchli va aniq xabarlarni tezkorlik bilan tushunarli shaklda yetkazishdir.

Yurtimizdagi shunday saytlar sirasiga biz bemalol Daryo.uz va Kun.uz saytlarini kiritishimiz mumkin. Bu saytlardagi ma'lumotlar o'zining ishonchliligi, aniqliligi, tezkorliligi bilan ajralib turadi. Ushbu saytlarda e'lon qilinadigan yangiliklar nafaqat O'zbekiston va bu yerdagi islohotlar, balki butun dunyodagi o'zgarishlar, yangiliklar haqida bayon qiladi.

Daryo.uz saytida e'lon qilinadigan xabarlar matnini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilishda sayt matnlarini analiz va sintez qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki bunday usulda tadqiq qilishda matndagi sotsiolingvistik birliklarni ajratib olib, so'ng ularni birma-bir guruhlariga ajratib tahlil qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Daryo.uz saytida e'lon qilinayotgan xabarlarga e'tibor beradigan bo'lsak, bu xabarlar ichida pragmatik ma'no ifodalab kelayotganlarini ham topishimiz mumkin. Masalan,

“O‘raga sichqon tushdi, guldur-gup yoxud “oshkoralik niqobi” ortidagi “shep”lar” maqolasida pragmatik ma’no mavjud, ya’ni “kosa ostida nim kosa” mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqola jurnalistik so‘rovnoma asosida tayyorlangan bo‘lib, unda bir nechta jurnalistlar O‘zbekistondagi ochiqlik siyosati haqida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashgan.

“...bu ochiqlik emas”

ANORA SODIQOVA, “Rost24” internet nashrining jurnalisti:

— Aksariyat tashkilotlar bo‘lar-bo‘lmas xabarlarini tarqataverishadi. O‘zlari haqida ko‘p **axborot** berish orqali “Mana, biz hamma uchun **ochiqmiz**”, demoqchi bo‘lishadi. O‘zi haqida videolar orqali nima ishlar qilgani va o‘z tashkiloti siyosatini maqtab chiqaverish – **ochiqlik** emas.

Misol uchun, Toshkent shahar hokimligini olaylik, Toshkent shahar hokimiyatining Telegram kanalida ma’lumotlar ko‘p. Qayerda qanday ishlar bo‘layotgani yoki boshqa narsalar haqida videolar e’lon qilib borishadi. Lekin biz ba’zi masalalar: “**snos**”, **byudjet** mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha savol bilan murojaat qilsak, hech qachon javob ololmaymiz. Bu ularning **OAV**ga ochiq emasligidan dalolat.

Nafaqat poytaxt hokimiyati, balki boshqa hokimlik, vazirliklar ham o‘zini **piar** qilish bilan band. Axborotlar ko‘p, lekin aynan bizga keragi yo‘q. Shubhali bo‘lgan ishlar bo‘yicha savollar bilan murojaat qilganimizda, **yopiq** bo‘lib qolishadi.

Qiyin savollarga javob beradigan yoki har doim **jurnalistlar** bilan ochiq gaplashadigan amaldorni aniq ko‘rsatolmayman. Amaldorlarning aksariyati jurnalistlar uchun yopiq. Javob bergan taqdirda ham ko‘pincha umumiy gaplar bilan cheklanishadi.

Davletovni (tahr. –Adliya vaziri Ruslanbek Davletov) jurnalistlarga ochiq javob berayotgan amaldor deb aytishim mumkin. **Ochiq muloqot** qilib turadi. Boshqa amaldorlardan intervyu olish qiyin. Davletov ham o‘zi anjuman uyishtirgandagina javob beradi. Lekin alohida murojaat bilan **intervyu** so‘rab chiqsak, jurnalistlarga ochiq javob berishni xohlamaydi.

Safoyev (tahr. – Senat raisining birinchi o‘rinbosari **Sodiq Safoyev**) ham uchrashuvlarda jurnalistlarga ochiq gapiradigan odam. Lekin u ham ko‘pincha nozik savollarga javobda umumiy gaplar bilan cheklanadi.

Tadbirlarda esa ko‘p amaldorlar jurnalistlardan **qo‘lga tushib qoladigan o‘g‘ridek** qochib yurishadi.

Yuqoridagi maqoladan olingan parchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, muallifning fikrlari pragmatik tusga egaligining guvohi bo‘lamiz. Barchamizga ma’lumki, yurtimizda yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan ochiqlik siyosati olib borilmoqda, o‘zlari bu siyosatga amal qilgan holda har yili jurnalistlar bilan uchrashuvlar tashkil qilib, qilingan va qilinadigan ishlar, ularning yurtimiz aholisi uchun foydali tomonlari haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar. Lekin yurtimizda shunday tashkilotlat borki, ular yuzaki qaraganda, ochiqlik siyosatiga amal qilayotgandek, lekin aniq ma’lumotlarni so‘rab borganingizda ulardan kerakli ma’lumotlarni olish juda qiyin. Hatto

o‘zini oshkoralik siyosatiga amal qilayotgandek ko‘rsatayotgan ayrim davlat amaldorlari ham aslida “yopiq” siyosatni afzal ko‘rishini maqoladan bilib olsak bo‘ladi.

Yuqoridagi parchaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, unda ma‘lum bir kasb vakillari uchun kerak bo‘ladigan so‘zlar ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin: intervyu, “ochiqlik”, “yopiqlik”, OAV, axborot, jurnalist, ochiq muloqot kabi. Bu so‘zlar jurnalistika kasbi uchun ishlatiladigan so‘zlar, ularni eshitganimizda ushbu kasb egalarini tushunamiz.

Yana bu maqoladagi parchada **piar, snos, byudjet, intervyu** kabi neologizm va olinma so‘zlardan foydalanilganligiga ishonch hosil qilamiz. Chunki bu so‘zlarning tilimizda muqobil variantlari mavjud, lekin ulardan foydalanish orqali muallif o‘z fikrini aniq tushuntirib bergan. “Piar” – o‘zining mavqeyini oshirish uchun qilinadigan ishlar, tanitish; “snos” – buzilishga tushgan yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan mol-mulk; “byudjet” – g‘azna, davlat mablag‘lari hisoblanadigan joy; “intervyu” – yuzma-yuz suhbat, biror kishi bilan ma‘lum maqsadlarda suhbat qurish va uni keyin omma e‘tiboriga havola etish. Yuqoridagi so‘zlardan foydalanish orqali o‘quvchi nima haqida gap ketayotganligini va bu so‘zlar ko‘proq davlat tashkilotlarida ishlaydigan ijtimoiy qatlamga oid so‘z ekanligini tezda anglab oladi.

Maqolaning davomida **DXX, TIV, AOKA** singari qisqartma so‘zlar - abbreviaturalardan, **“yoqimli imij”, “favorit”, “simpatiya”, “innovatsiya”** singari neologizmlardan, **STAT.UZ, OPENGO.UZ** singari lakunalardan, **“gen plan”, “zapis”** singari varvarizmlardan, **«ochiqlik farishtasi», quloqni qomatga keltiradigan “sirena”, “qovun tushishlar”** singari kesatq so‘zlardan ham foydalanilganiga guvoh bo‘lamiz. Yoki maqolaning nomini o‘zida ham **“shep”**lar deb nomlangan kesatq so‘zga guvoh bo‘lamiz, ya‘ni bu so‘z o‘zlarini mutlaqo yuqori qatlam deb hisoblab, hech kimni yoniga yaqinlashtirmaydigan amaldorlar uchun ishlatilgan.

Maqolada **“qo‘lga tushib qoladigan o‘g‘ridek”** iborasi hukumat vakillariga nisbatan qo‘llangan. Bu so‘zlashuv uslubiga xos ibora hisoblanib, asosan hech kimga tutqich bermaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu matnda ham ushbu ibora hukumat vakillarining jurnalistlardan qochib yurganligini ko‘rsatib berish uchun ishlatilmoqda. Ushbu ibora hukumat vakillarining yopiq siyosatiga ishora qilmoqda.

Daryo.uz saytida e‘lon qilingan **“OTMlarga kirish uchun berilgan imtiyozlar qayta ko‘rib chiqilishi mumkin”** nomli maqolani ham tahlil qilganimizda unda ham bir nechta sotsiologingvistika o‘ld bo‘lgan elementlarni aniqlashga harakat qildik. Maqolaning nomida qo‘llangan **“imtiyoz”** so‘zining o‘zida sotsiologingvistik xarakter mavjud. Chunki **“imtiyoz”** so‘zi bugungi kunda talabalar, yosh yigit-qizlar, xotin-qizlarning mehnat faoliyati uchun ishlatiladigan so‘zga aylanib bormoqda.

Ushbu maqolada portal, elektron platforma, korrupsiya singari lakunga oid bo‘lgan terminlardan foydalanilgan, chunki bu so‘zlar ingliz tilida qanday ifodalangan bo‘lsa, bizning tilimizda ham xuddi shunday ifodalanmoqda. Ya‘ni internetga oid lakunalar ham tilimizga kirib kelmoqda.

“Xatlov”, “raqamlashtirish” singari yangi mazmun kasb etgan so‘zlar ham ishlatilgan. **“Xatlov”** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan so‘z bo‘lib, bu so‘z endi adabiy tilga ham olib

kirilayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. "Raqamlashtirish" so'zi ham elektron hisoblash vositalari kirib kelishi rivojlangandan so'ng yangi mazmun kasb eta boshladi. Avval bu so'z kitob, daftar, qator kabilarni raqamlashtirishni anglatib tor ma'noda ishlatilgan bo'lsa, endi ma'nosi kengayib, AKT sohasida butun bir jamiyat haqidagi umumiy ma'lumotlarni elektron to'plash ma'nosini anglatadigan bo'ldi.

Yuqoridagi xabarda **"kvota"** so'zi ham qo'llangan. Bu so'z asli lotincha bo'lib, tilimizda o'zlashib qolgan sanaladi. Bu so'zning o'zbekcha ma'nosi **"me'yor"**, **"ulush"**, **"qism"** degani. Bu so'z asli lotincha so'z, bizga rus tili orqali kirib kelib, tilimizda muqim o'rnatilib qolgan. O'sha vaqtda bu so'z biror bir narsaning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qismi, ulushi, me'yori, ishlab chiqarish birlashmasining har bir ishtirokchisi uchun shartnoma asosida belgilab qo'yilgan hissasi, qismi, payi kabi ma'nolarda ishlatilgan, bugungi kunda esa asosan OTMlarga qabul jarayonida, saylovlarda ishlatilmoqda, ya'ni uning ifodalaydigan ma'nosi torayib ketmoqda, degan xulosaga kelishimizga asoslar yetarli. Boshqa hollarda ushbu so'zning o'zbekcha variantlari ishlatilmoqda. Ushbu so'zning o'zbekcha variantlarini biz ko'proq tadbirkorlik, qurilish, biznes kabi ishlab chiqarish sohalarida qo'llaymiz:

- Tadbirkorlar hissasini oshirish uchun davlat ta'minotini va ulushini kamaytirish zarur. Shundagina hissasi oshgan tadbirkorda boshqalarni ham ishlatish istagi paydo bo'ladi. (Facebook tarmog'idan)

Daryo.uz saytidagi xabarlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda milliy koloritetimizga oid bo'lgan so'zlarni ham, xorijiy an'analarni ifodalovchi so'zlarni ham, realiyalarni ham uchratishimiz mumkin.

Daryo.uz saytida e'lon qilingan **"Farroshlik qilib yo'lini topgan, Amerikadagi kurash maydonlarida kuragi yerga tegmagan buxorolik hunarmand-muhojir: Maqsadimga yetish uchun mehnatdan qochmadim"** nomli maqolada milliy madaniyatimizga xos bo'lgan **kashtachilik, zargarlik, chekankachilik, naqsh o'ymakorligi, pichoqchilik** kasblari, **so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta** kabi zargarlik kasbiga oid so'zlar, **uchburchak, yulduzcha, oltiburchak va guldasta naqshli, milliy obidalar tasviri aks etgan o'ymakorlik buyumlar** o'zbek xalqi madaniyati bilan chambarchas bog'langanligini hisobga oladigan bo'lsak, matnda bu so'zlardan foydalanish orqali bizning milliyligimiz ko'rsatib berilgan, kimlarning avlodi va qaysi xalq vakili ekanligimizni ushbu so'zlarni eshitgan yoki o'qigan insonlar tezda topib olishadi. Chunki bu so'zlar orqali ifodalangan kasblar bizning o'tmishimiz, bugunimiz va kelajagimizdir. Ularda o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy koloritet anglashilib turibdi.

Maqolada **ichimizga sig'maymiz, hadik, yutuqli** natija, **o'kirib** yig'lamoq, sahna **shifti**, naqshlar **aksi, unniqqan** kiyimlar, **janob** kabi so'zlar ma'lum bir hududga oid so'zlar - hududiy dialektlar sanalib, adabiy tilda qo'llanilmaydi. Kashtado'zlar jargoniga oid **naqsh mujassamoti, yo'rma chok, oynaxalta, dorpech** kabi so'zlar ijtimoiy dialektga misol bo'la oladi.

Bu yerda "ichimizga sig'maymiz" iborasi morfologik jihatdan ot+fe'l shaklida hosil bo'lgan bo'lsa, sotsiolingvistik jihatdan esa o'rta hol tabaqaga mansub insonlarning nutqiga

xosligi bilan ajralib turadi. Chunki bunday taxmin qilishimizga sabab yuqori tabaqa vakillarida ichiga sig‘may ketish holatlari kam uchraydi, ularga bu iborani qo‘llashdan ko‘ra, “zavqlanamiz”, “xursandmiz” (bevosita maqoladagi jumlagi monand so‘z tanlandi) kabi so‘zlarni qo‘llash afzal sanaladi. Yuqori tabaqa vakillari qo‘lidagi pullari yoki tanish-bilishlari orqali ishini tezda hal qilib qo‘yishlari mumkin, lekin o‘rta hol tabaqa vakillari biror ishni amalga oshirayotganda qiyinchiliklarga qaramay harakat qiladilar va nihoyat ishlari amalga oshadigan bo‘lsa, “ichiga sig‘may” xursand bo‘lib ketadilar. Shu paytdagi ularning ruhiy holatini so‘z bilan tasvirlab berish nihoyatda mushkul. Yoki maqola qahramonining nutqida “janob” so‘zining qo‘llanilishi ham u shaxsning o‘rta hol tabaqaga mansub ekanligini, so‘zlovchining anchayin madaniyatli shaxs ekanligini ko‘rsatib turibdi. Chunki aynan shunday tabaqa vakillari nutqida boshqalarni hurmatlab “janob” deb chaqirish mavjud.

Yana geografik, sportga oid realiyalarning ham namunalarini ko‘rishimiz mumkin: **Michigan shtati, Portlend, Oregon, Vashington shtati, Amerika Open Oregon Grappling Championship’, grepping**, kurashning **submission** turi kabi so‘z va birikmalar tarjima qilinmasdan nutqimizga tayyor holda olib kirilgan, chunki bu so‘z va birikmalarni tarjima qilish g‘alizlikni yuzaga keltiradi.

Yana shafqatsiz jang turi, lat yeyish, sinish, g‘alaba, jang maydoni, zarba, hushdan ketish yoki o‘lim holatlari, ko‘p pul to‘lanishi kabi so‘zlar grepping sport turi haqida dastlabki tushunchalarni hosil qilishimiz uchun turtki bo‘lib xizmat qilgan. Chunki bu sport turini shug‘ullanib yurmagan insonlardan boshqalar bilmasligi aniq. Demak, yuqoridagi so‘zlarga asoslanib grepping sport turining qonli sport turi ekanligini, insonlar hayotining pul oldida qadri yo‘qligini, insonlar pul uchun hatto o‘limga tayyor ekanliklarini bilib olishimiz, bu so‘zlar o‘zida pragmatik ma‘no ham tashiganligiga ishonch hosil qilishimiz, maqola qahramonining ham ushbu ishlarni pul uchun bajarganligini, pulga muhtojlikdan dastlab shu sport bilan shug‘ullanganligini bilib olishimiz mumkin.

Ushbu maqoladagi yana bir jumlagi e‘tiboringizni qaratmoqchimiz: “o‘zbek maktabida ongimga singdirilgan «**kurashdagi halollik**» meni g‘alabaga boshlagandek bo‘laveradi...” Ushbu jumlada ham pragmatik xususiyat mavjud. Bu jumlaning o‘qigan har qanday shaxs, u qayerlik bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zbek sport maktablarida sportchining ongiga halol kurashish kerakligi, g‘irromlikka sportda o‘rin yo‘q ekanligi, bunga yo‘l qo‘ygan sportchilarning o‘zbek diyorida hurmat va obro‘si bo‘lmasligi kabi fikrlarni anglab olishi mumkin.

Maqola boshida qo‘llangan “**muhojir**” so‘zining ham o‘ziga yarasha ma‘no-mazmuni mavjud. Chunki bu so‘zning asl ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, ma‘lum bir hududda muqim yashamagan, boshqa millat vakilining boshqa yurtga-o‘zga millat vakillari orasiga kelib yashaydigan qismi degan ma‘nolarni anglatadi. Muallif ushbu so‘zni qo‘llash orqali suhbatdoshining Amerikada uzoq yashamaganligiga, ingliz millatiga mansub emasligiga, uni boshqa yurtdan, ya‘ni O‘zbekistondan ko‘chib borganligiga ishora qilgan. Boshqa muhojirlar qatori maqola

qahramoni ham tinimsiz mehnat qilganini, ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazganligini birgina shu so‘z orqali anlab olishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Daryo.uz saytida e’lon qilanayotgan xabarlar, maqolalar turli xil mavzuga oid. Shunday xabarlardan biri tibbiyot sohasiga oid bo‘lib, **“Angren va Popda ochilgan tibbiyot markazlarida 3 oyda bosh miyada 80 ga yaqin murakkab operatsiyalar o‘tkazildi”** nomli xabardir. Ushbu xabarda yurtimizda tibbiyot sohasida, aniqroq aytadigan bo‘lsak, tez tibbiy yordamda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar haqida fikr yuritilgan. Yurtboshimiz tomonidan tez tibbiy yordam sohasining rivojlantirilishi, ularning kerakli jihozlar bilan ta’minlanishi bu sohadagi sifatni ham oshirdi. Maqolada tez tibbiy yordam sohasiga oid bo‘lgan **tez yordam podstansiyalari, tibbiy yordam brigadalari, tumanlararo qo‘shma shikastlanish va o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazlari, avtohalokatlar, bemorlar, o‘tkir yurak qon-tomir kasalliklari, shoshilinch murakkab operatsiyalar** kabi birliklardan foydalanilgan. Bu orqali tilning aralashuvini, moyillashuvini, ya’ni ikki tildagi so‘zlarning birikib umumiy mazmun kasb etish holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni tez yordam *podstansiyalari*, tibbiy yordam *brigadalari*, murakkab *operatsiyalar* kabi birliklarda o‘zbek tiliga xos so‘zlar bilan asli kelib chiqishi fransuzcha, ruscha, lotincha bo‘lgan, lekin bizning tilimizda o‘zlashib qolgan so‘zlarning bir butun ma’no kasb etib, yangi tushunchalar ifodalanayotganligining guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari, bu so‘zlar alohida ishlatiladigan tillarni tashkil qiladi. Chunki bunday tillar haqida gapirganimizda alohida sohalarga oid so‘zlarni tushunishimiz kerak bo‘ladi. Yuqoridagi birliklar ham bevosita tibbiyot sohasiga oid bo‘lgan leksika hisoblanadi.

Ushbu maqolaning sarlavhasidan ham shu narsani anglasak bo‘ladiki, odamlar Angren va Popdan shahar, viloyat markazlarigacha borishga yo pullari, yoki vaqtlari, yoki imkoniyatlari bo‘lmagan. Ular o‘z yog‘iga o‘zlari qovurilib yurganlar. Yurtboshimizning bemorlarni o‘ylab yangi tez tibbiy markazlari ochib berganlaridan so‘ng o‘sha bemorlar operatsiya stoliga yotganlar. 3 oy ichida faqat bosh miyada 80 ga yaqin murakkab operatsiyalarning o‘tkazilganligi bizning shunday xulosaga kelishimizga sabab bo‘ldi.

“Andijonda otasini haqoratlagan qo‘shnisini pichoqlab o‘ldirgan erkak ushlandi” nomli xabarda gumonlanuvchining ismi M.D. va jabrlanuvchining ismi T.J. deb ko‘rsatilgan. Bunga sabab O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat kodeksi”ning tegishli moddalariga binoan ismlar oshkor etilmasligidadir. Bundan tashqari, gumonlanuvchining aybi to‘liq isbotlanmaganligi uchun u aybsizlik prezumpsiyasidan²⁸ foydalanish huquqiga egaligi va jabrlanuvchining ismini aytib uning yaqinlariga nisbatan hurmatsizlik qilmaslik uchun ham xabarda ularning ismi oshkor etilmagan. Shuningdek, xabarda ehtiyot chorasi, qamoqqa olish, ashyoviy dalil kabi birikmalar qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘zlar tergov bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga oid bo‘lgan birliklar sanaladi. Bu so‘zlar orqali gumonlanuvchiga nisbatan hozircha, ya’ni aybi isbotlanmaguncha qo‘llanilgan chorani bilib olishimiz mumkin bo‘ladi.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-aprelda qabul qilingan, 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan

Demak, Daryo.uz saytidagi ma’lum bir mavzudagi xabar va maqolalarni sotsiologik tahlil qilib ushbu saytda e’lon qilinadigan xabarlarni bir necha mavzu guruhlariga ajratishimiz mumkin ekan:

- 1) tibbiyot sohasiga oid;
- 2) iqtisodiy sohaga oid;
- 3) ijtimoiy sohaga oid;
- 4) huquq sohasiga oid;
- 5) diniy sohaga oid;
- 6) ma’rifiy-madaniy sohaga oid;
- 7) ilmiy sohaga oid;
- 8) ta’lim va tarbiyaviy sohaga oid;
- 9) ekologik sohaga oid va hokazolar.

Shuningdek, Daryo.uz sayti xabarlarini tahlil qilish jarayonida undagi xabarlarni *kundalik axborot beruvchi*, *maxsus axborot beruvchi* hamda *siyosatshunoslar*, *amaldorlar*, *davlat rahbarining fikrlarini yoritib beruvchi* matnlarga ajratish mumkinligiga ehtiyoj mavjudligining guvohi bo’ldik. Ularning barchasi publitsistik usulda yartatilgan bo’lishi mumkindir, lekin ulardagi ifoda mazmuni bir-biridan farq qiladi. Xuddi gaplarni ifoda maqsadiga ko’ra turlarga ajratganimizdek, Daryo.uz matnlarini ham ifodalanayotgan mazmuniga ko’ra turlarga ajratish maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki kundalik axborot beruvchi matnlarda insonlarning ruhiyatiga, hayot mobaynida ko’rgan qiyinchiliklariga, erishgan muvaffaqiyatlariga, jamiyatdagi o’zgarishlarga, davlatlarning siyosiy kurashlariga, ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarga batafsil to’xtalib o’tilmaydi. Ushbu xabarlarning maqsadi odamlarga kundalik axborotlarni yetkazish, ularni xabardor qilish sanaladi. Maxsus axborot beruvchi deb atayotganimiz ikkinchi guruh matnlarda esa voqea-hodisalarga batafsil to’xtalib o’tiladi, voqealarning kelib chiqish tarixi yoritiladi, o’quvchilarga har qanday voqea to’liq tushuntiriladi. Eng muhimi, o’quvchi ushbu xabar matnini o’qib, o’ziga tegishli xulosa chiqaradi. Siyosatshunoslar, amaldorlar va davlat rahbarining ma’lum bir mavzu yuzasidan fikrlarini yoritib beruvchi xabar matnida esa tanlangan mavzu bo’yicha ularning fikrlari beriladi, tahliliy chiqishlari bilan tanishiladi, muammolarni bartaraf etish yo’l-yo’riqlari ko’rsatiladi. 1-guruhga mansub matnga Daryo.uz saytida e’lon qilingan **“Qashqadaryodan Toshkentga kelib chiqishi noma’lum bo’lgan 150kg go’sht olib ketayotgan Cobalt to’xtatib qolindi”, “Andijonda otasini haqoratlagan qo’shnisini pichoqlab o’ldirgan erkak ushlendi”** kabi xabarlar matni kirsa, 2-guruhga mansub matnga **“Farroshlik qilib yo’lini topgan, Amerikadagi kurash maydonlarida kuragi yerga tegmagan buxorolik hunarmand-muhojir-“Maqsadimga yetish uchun mehnatdan qochmadim””** xabar matni, 3-guruhga mansub matnga **““Oxir-oqibat Rossiya defoltga uchrasa kerak”-tahlilchilar”** nomli xabar matni misol bo’lishi mumkin.

Bu guruhga mansub xabarlar matni ham bir-biridan sotsiologik jihatdan farq qiladi, chunki ularning birinchisida qo’llaniladigan so’zlar biror ijtimoiy guruhga tegishli bo’lmasdan, o’zida barcha uchun tushunarli bo’lgan xabar mazmunini aks ettirsa, ikkinchisida esa matn so’zlari ma’lum bir ijtimoiy guruhga mansub bo’ladi, ya’ni asosan

o‘rta hol va quyi tabaqa vakillariga, boshlaridan ko‘p qiyinchiliklarni o‘tkazgan xalq vakillariga tegishli voqealarni aks ettiradi, uchinchi guruhda esa xabar matnidagi so‘zlar yuqori tabaqa, ya’ni siyosatchilar, amaldorlar, davlat rahbariga tegishli bo‘lib, ularda qo‘llangan so‘zlarning ma’nosini hamma ham tushunavermaydi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tushunchalar ko‘p qo‘llanadi.

Demak, Daryo.uz ijtimoiy saytida e’lon qilinayotgan yangiliklarda sotsiologik xarakterni ham, pragmatik ma’noni ham uchratishimiz mumkin. Har bir yangilikka e’tibor qilsangiz, mavzu jihatdan va ifoda maqsadiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ko‘tarib chiqilayotgan muammolarning ko‘lami, jamiyat uchun qay darajada muhim ekanligi ham yangiliklarning matnlaridan anglanib turiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-aprelda qabul qilingan, 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan. www.lex.uz
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (Elektron versiyasi-35281ta so‘zni o‘z ichiga olgan)
3. Hamidulla Dadaboyev, Shoir Usmanova. Xorijiy sotsiologik. -Toshkent:2014.
4. Sotsiologik. O‘quv-uslubiy majmua. GulDu, 2018.
5. Sotsiologik. O‘quv-uslubiy majmua. SamDu, 2021.
- A. Ермакова ва бошқалар. “Социология”. Москва:1999.
6. Беликов В. И., Крисин Л. П. Социология. –М.: 2001.
7. Krilova M.N. Tarmoqdagi his-tuyg‘ularni ifodalash vositalari. Ijtimoiy tarmoqlarda his-tuyg‘ularni ifodalash usullari. Internet muloqotida hissiyotlarni ifodalash. koreajob.ru sayti.